



TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMIDA TA'LIM BERISHNING KLINIK YUTUQLARI

Moxidil Rasulova Tursunaliyevna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Fiziologiya kafedrasi dosenti

moxidil.rasulova@mail.ru

ORCID: 0000-0002-3456-3384

Annotatsiya *Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning nazariy asoslari, amaliy samaradorligi, klinik ta'lim jarayonidagi yutuqlari hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tizimning talabalarda klinik fikrlash, amaliy ko'nikmalar va mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Shuningdek, simulyatsion texnologiyalarning roli, OSCE baholash tizimi, modul asosidagi o'quv jarayonining integrativ yondashuvi batafsil o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *kredit-modul tizimi, tibbiyot ta'limi, klinik ta'lim, simulyatsion texnologiyalar, kompetensiya, OSCE, mustaqil ta'lim.*

Globalizatsiya jarayonida tibbiyot ta'limining sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu munosabat bilan kredit-modul tizimi tibbiyot oliy ta'limida amaliyotga yo'naltirilgan, modul bo'yicha bosqichma-bosqich o'qitish, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish orqali o'qitish sifatini oshirishning samarali vositasiga aylandi. Mazkur tizimning asosiy maqsadi — talabalarga mustaqil ta'lim olish imkonini yaratish, klinik fikrlashni rivojlantirish va zamonaviy tibbiy texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishdan iborat.

Kredit-modul tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning konsepsiyasi

Kredit-modul tizimi ECTS tamoyillariga asoslangan bo'lib, talaba faoliyatini reyting asosida baholash, o'quv yuklamani kredit birligida aniqlash va o'qitish jarayonini modullar orqali tashkil etishni nazarda tutadi. Tibbiyot sohasida mazkur tizim talabaning nazariy va amaliy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishini, fanlararo integratsiyani kuchaytirishni ta'minlaydi.

Tibbiyot ta'limiga moslashgan kredit-modul modeli tibbiyot ta'limida kredit-modul tizimi klinik ko'nikmalarni modul yakunida baholash, amaliy mashg'ulotlar ulushining ko'payishi, simulyatsion o'quv dasturlari integratsiyasi, klinik stsenariylar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan talabalarni bilim va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi bilan asoslanadi.

Kredit-modul tizimining klinik afzalliklari deganda klinik fikrlashni rivojlantirishga ta'siri sifatida modul asosida tashkil etilgan klinik mashg'ulotlar talabaning quyidagilarni bilish mumkin. Masalan kasalliklarni aniqlash, differensial tashxis



qo'yish, klinik qaror qabul qilish, davolash algoritmlarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. PBL (Problem Based Learning) va CBL (Case Based Learning) metodlari klinik fikrlashni faollashtiradi.

Tibiy ta'limda talabalarning simulyatsion texnologiyalar bilan boyitilgan amaliyot hamda talabalarning dastlabki kurslarda klinik fikrlashga qaratilgan bo'lishi va shu muhitga erta moslashtirishga, talabalarda stresslarni kamaytirishga asoslanga.

Simulyatsion markazlarda qo'llaniladigan yuqori aniqlikdagi fantomlar, VR/AR simulyatsiyalari, ACLS/BLS treninglari, jarrohlik stendlar talabalar tayyorgarligini real klinik sharoitga maksimal yaqinlashtiradi.

Amaliyotga yo'naltirilgan baholash tizimi — OSCE (Objective Structured Clinical Examination) bu kredit-modul tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Unda klinik vaziyatlar, simulyatsion topshiriqlar, kommunikativ ko'nikmalar, amaliy manipulyatsiyalar bo'yicha talabaning tayyorgarligi obyektiv baholanadi.

Klinik yutuqlar (ilmiy natijalar tahlili) talabalarning amaliy ko'nikmalari sifat jihatdan oshgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimiga o'tgan oliygohlarda amaliy ko'nikmalar darajasi 35–40% ga oshgan. Ayniqsa, anamnez yig'ish, bemor bilan kommunikatsiya, fizik tekshiruv ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatilgan.

Yuqorida takidlab o'tganimizdek tibbiy ta'limda kredit modul tizimida ta'lim berishning yutuqli tomoni shundaki, talabalarda klinik jarayonlarga integratsiya kuchayganligi ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, modul asosida klinikalarga biriktirilgan talabalar: xirurgik bo'lim, terapiya bo'limi, reanimatsiya, pediatriya klinikalarida qatnashishi orqali real ish tajribasini oshiradi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatining faollashuvida talabalar mustaqil ta'limning aniq belgilanishi natijasida talabalar ilmiy izlanishlar, klinik kuzatuvlar, kichik ilmiy loyihalarda faol ishtirok eta boshlagan.

Amaliyotdagi tibbiy ta'limning modul-kredit tizimida ularning ilmiy asoslangan yechimlari klinik bazalardagi yuklama yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolardan biri:

Birinchida, talabalarning ortiqcha soni sabab bir bemorga bir nechta talaba to'g'ri kelishi mumkin, lekin buning yechim onlayn-simulyatsion modullar, virtual klinik holatlar bazalari, rotatsiyalarni diversifikatsiya qilish.

Ikkinchidan, pedagoglarning modul tizimiga moslashuvi yuzaga kelganda, buning yechim sifatida muntazam pedagogik treninglar, OSCE kurslari va simulyatsion o'qitish bo'yicha malaka oshirish dasturlari joriy etilishi maqsadga muvofiq kelishi bilan belgilanadi.

Uchinchida, talabalarning mustaqil ta'limga moslashishi xollatlarida mentorlik tizimini yo'lga qo'yish, LMS (Learning Management System) platformalaridan foydalanish talabalarni mustaqil izlanishga o'rgatadi.



Xar bit tizimning o'ziga xos mammolari bo'lsa uning yechimi bo'lgani kabi kredit-modul tizimining istiqbollari xam mavjud. Bularga:

Raqamli klinik ta'lim platformalarini yaratish

- Virtual jarrohlik simulyatorlarini kengaytirish
- Rezidentura uchun modul asosidagi yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish
- Milliy OSCE markazini yaratish
- Tibbiyot oliygohlari o'rtasida yagona kredit tizimini yo'lga qo'yish

Xulosa o'rinda shuni takidlash kerakki, kredit-modul tizimi tibbiyot ta'limining sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiluvchi zamonaviy o'qitish modeli hisoblanadi. U klinik fikrlashni shakllantirish, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va talabalarda mas'uliyatni oshirish orqali yuksak klinik natijalarga erishishni ta'minlaydi. Klinik simulyatsiya, OSCE baholash tizimi, modul asosidagi o'qitish va integrativ yondashuv tibbiyot oliy ta'limini xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy omilidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Harden R.M., Crosby J. AMEE Guide No. 20: The good teacher is more than a lecturer — the twelve roles of the teacher. Medical Teacher, 2000.
2. Frank J.R., Snell L., Ten Cate O. Competency-based medical education: theory to practice. Medical Teacher, 2010.
3. World Federation for Medical Education (WFME). Global Standards for Quality Improvement in Medical Education. 2020.
4. Dent J., Harden R. A Practical Guide for Medical Teachers. Elsevier, 5th Edition, 2019.
5. Epstein R.M. Assessment in medical education. New England Journal of Medicine, 2007.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari: Tibbiyot ta'limi tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha hujjatlar, 2020–2024.
7. Cook D.A., Brydges R. Simulation-based medical education. Journal of the American Medical Association, 2011.
8. Miller G.E. The assessment of clinical skills/competence/performance. Academic Medicine, 1990.